


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”
Yuridik kadrlarni qayta
tayyorlash va malakasini
oshirish instituti direktori



Y. Kanyazov

2025-yil 7 -aprel

**“Huquqiy muammoni aniqlash va hal etishning
tashkiliy va amaliy jihatlari”
o‘quv kursining
O‘QUV DASTURI
(qisqa muddatli o‘quv kursi)**

I. O'QUV KURSINING MAZMUNI

1.1. Kirish. O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri tomonidan 2025-yil 19-fevral kuni tasdiqlangan Sirdaryo tuman adliya bo'limi faoliyatining tahlilidan kelib chiqib, mavjud tizimli muammo va kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan 2025-yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar yo'l xaritasining 4-bandini ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 171-son qarori talablaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan.
1.2. O'quv kursining maqsadi: Tinglovchilarning huquqiy muammoni aniqlash va hal etishning tashkiliy va amaliy jihatlarini tushuntirishga qaratilgan ko'nikmalarini rivojlantirish.
O'quv kursining vazifalari: Kurs yakunida tinglovchilar "Huquqiy mahalla" loyihasini amalga oshirish Konsepsiyasining mohiyati, Adliya organlari tomonidan aholining huquqiy muammolarini aniqlash va bartaraf etish tartibi to'g'risida Nizom qoidalari, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirishda ularga metodik yordam ko'rsatib borish tartibi, Mahalla fuqarolari yig'inida aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilanadigan birlamchi minimal standartlar bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni egallaydilar.
1.3. O'qitish shakli: masofaviy (onlayn) yoki an'anaviy shaklda.
1.4. Tinglovchilar kontingenti: Adliya vazirligi tizimi xodimlari.

II. MODULNING MAVZULAR REJASI

№	Modul va mavzular nomi	O'quv mashg'uloti	Jami
1	"Huquqiy mahalla" loyihasini amalga oshirish Konsepsiyasining mohiyati. Adliya organlari tomonidan aholining huquqiy muammolarini aniqlash va bartaraf etish tartibi to'g'risida Nizom qoidalari.	1	1
2	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirishda ularga metodik yordam ko'rsatib borish tartibi.	1	1
3	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga normativ-huquqiy hujjatlar va ularni tushuntirishga qaratilgan targ'ibot materiallarini yetkazish tartibi. Mahalla fuqarolari yig'inida aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilanadigan birlamchi minimal standartlar.	1	1
	JAMI	3	3

III. O'QUV MATERIALINING MAZMUNI

1-mavzu: "Huquqiy mahalla" loyihasini amalga oshirish Konsepsiyasining mohiyati. Adliya organlari tomonidan aholining huquqiy muammolarini aniqlash va bartaraf etish tartibi to'g'risida Nizom qoidalari. Asosiy masalalar: "Huquqiy mahalla" loyihasini amalga oshirish. "Mahalla yettiligi" faoliyatini metodik jihatdan ta'minlash. Tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashga ko'maklashish. Mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga huquqiy yordam berish hamda aholida "qonunga hurmat bilan qarash"ni shakllantirish. Mahalla infratuzilmasini yaxshilash hamda aholining ehtiyojlarini qondirish. Konsepsiya ijrosini ta'minlashdagi tashkiliy tadbirlar hamda monitoring va nazoratni amalga oshirish. Aholining huquqiy muammolarini aniqlash va hal etish. "Adliya-mahalla" va "Online-mahalla" platformalarida ishlash va ma'lumot almashish.
2-mavzu: Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida yagona huquqni qo'llash amaliyotini

shakllantirishda ularga metodik yordam ko'rsatib borish tartibi.

Asosiy masalalar: Yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirishda metodik yordam ko'rsatish usullari va tartibi. Huquqiy maslahat va tavsiyalar berish. Seminar va davra suhbatlari o'tkazish. Uslubiy qo'llanma, video va audio materiallarni yuborish. Joylarda uyma-uy yurib huquqiy tushuntirishlar berish. Qisqa muddatli bepul o'quv kurslari tashkil etish.

3-mavzu: Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga normativ-huquqiy hujjatlar va ularni tushuntirishga qaratilgan targ'ibot materiallarini yetkazish tartibi. Mahalla fuqarolari yig'inida aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilanadigan birlamchi minimal standartlar.

Asosiy masalalar: Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga huquqiy axborotni yetkazish. Mahalla fuqarolari yig'inida aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilanadigan birlamchi minimal standartlar.

IV. O'QUV KURSINING MODDIY TEXNIK TA'MINOTI

O'quv dasturini o'zlashtirish va ta'lim jarayonlarini ta'minlashga mo'ljallangan o'quv va o'quv-metodik materiallar.

O'quv materiallari:

ma'ruza fondlari (shu jumladan, elektron shakldagi) va fan bo'yicha o'quv qo'llanma, tarqatma materiallar;

multimedia materiallari (slaydlar, prezentatsiyalar va h.k.).

O'quv materiallari Axborot-resurs markazi va kafedralarda bosma hamda elektron shaklda saqlanadi.

O'quv-metodik materiallar:

test (yoki nazorat savollari) yoxud masofaviy topshiriqlar;

amaliy topshiriqlar (masalalar yoki katus va h.k.).

O'quv dasturini amalga oshirish uchun zarur texnik ta'minoti:

shaxsiy kompyuter – o'qituvchining avtomatlashtirilgan ish joyi;

“ppt (pptx)”, “doc (docx)”, “xlsx”, “mp3” va boshqa h.k. formatdagi fayllar bilan ishlash uchun dasturiy ta'minotlar;

multimedia qurilmasi, ekran yoki smart-televizor.

O'quv materiallari Axborot-resurs markazi va kafedralarda bosma hamda elektron shaklda saqlanadi.